SIDDIQ MO‘MIN SHE’RIYATIDA FONOPOETIK VOSITALARNING LISONIY-USLUBIY IMKONIYATLARI

Usmonova Ziyodaxon Ilxomjonovna
Farg‘ona davlat universiteti mustaqil izlanuvchi
Lola Murotova nomidagi qishloq xo‘jaligiga ixtisoslashgan texnikum ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi
https://orcid.org/0009-0007-4310-9099
ziyodaxonusmonova7@gmail.com

Annotatsiya
Ushbu maqolada taniqli olim va shoir Siddiq Mo’min she’riyatida fonopoetik vositalarning lisoniy-uslubiy imkoniyatlari badiiy matn tahlili doirasida tadqiq etilgan. Maqolada alliteratsiya, assonans, anaforik takror va tovush intonatsiyasining she’rning estetik va emotsional ta’sirchanligini oshirishdagi o‘rni ochib berilgan. Tadqiqot natijasida shoirning tovushlar uyg‘unligidan shunchaki ohangdorlik uchun emas, balki chuqur falsafiy-ruhiy jozibani ifodalashda yetakchi lisoniy-uslubiy qurol sifatida foydalanganligi isbotlangan.

Kalit so‘zlar: *fonopoetika, alliteratsiya, tovushlar simvolizmi, lisoniy-uslubiy imkoniyat, badiiy matn, anaforik takror.*

KIRISH

Badiiy matn, xususan she’riyat milliy til tarkibining eng yuqori estetik quvvat bilan namoyon bo’ladigan maydonidir. She’riy matnning ta’sir kuchi va estetik jozibasi faqatgina so‘zlarning semantik yukiga emas, balki ularning tovush va ohang tizimiga ham bevosita bog‘liq. Lisoniy birliklarning tovush darajasidagi lisoniy-uslubiy imkoniyatlarini o‘rganuvchi soha fonopoetika (yoki fonostilistika) deb ataladi.

Bugungi kunda o‘zbek tilshunosligi oldida badiiy matnning fonopoetik strukturasi, fonetik birliklarning estetik imkoniyatlari hamda ularning matn mazmunini shakllantirishdagi o‘rnini monografik yo‘sinda tadqiq etish vazifasi turibdi. Zero, “leksik poetika, matn poetikasi hamda fonetik stilistika, fonosemantikaga bag‘ishlangan qator asarlarda tilshunoslarning tovushlar simvolizmi, alliteratsiya, geminatsiya, qofiya ilmiga bag‘ishlangan qarashlari ifodalangan. Lingvopoetika sohasida, xususan, fonopoetikada har bir tilning mental va akustik-artikulyatsion tomonlari bir-biridan tubdan farq qilishi ta’kidlanadi. Bunga arab, xitoy, nemis, ingliz va boshqa tillardagi fonetik struktura, urg‘u, nutq tempi, ovoz toni, tembr kabilarning o‘ziga xos differensial belgilari mavjudligi asos bo‘ladi” [1]. Mazkur nuqtai nazardan qaralganda, Siddiq Mo‘min she’riyati ham o‘ziga xos fonopoetik olamni namoyon etadi. Xususan, “Olisdagi yaqinlarim”, “Yaqindagi olislarim”, “Ko‘ngil odami”, “Huzurimga keldi ellik” kabi she’rlarida tovush birliklari, ritmik qurilish va takroriy fonetik vositalar asarning mazmuniy-kompozitsion tuzilishi bilan uzviy bog‘langan holda qo‘llanib, lirik qahramonning sog‘inch, mehr, samimiyat, xotira va hayotiy mushohadalar bilan bog‘liq ruhiy kechinmalarini ta’sirchan ifodalashga xizmat qiladi. Natijada fonopoetik vositalar matnning emotsional-ekspressiv qimmatini oshirib, muallif poetik tafakkurining

individual xususiyatlarini namoyon etuvchi muhim lingvopoetik omil sifatida namoyon bo‘ladi.
Bunday poetik-fonetik birliklar shoirning individual uslubiga xos bo‘lgan okkazional hodisalar sifatida namoyon bo‘ladi.

Siddiq Mo‘min she’riyatida fonopoetik vositalar faqat musiqiylik yaratish bilan cheklanmaydi. Ular lirik qahramonning ruhiy kechinmalari, hissiy tebranishlari va ijtimoiy-falsafiy qarashlarini ifodalashda ham faol ishtirok etadi. Natijada shoir she’riyatida tovush ma’noga, ma’no esa tovushga aylanib, o‘ziga xos fonosemantik uyg‘unlik vujudga keladi. Shu jihatdan Siddiq Mo‘min she’riyati o‘zbek poetik nutqining fonopoetik imkoniyatlarini tadqiq etishda muhim manbalardan biri bo‘lib xizmat qiladi. Uning asarlarida tovush estetikasi va poetik tafakkurning uzviy birligi kuzatiladiki, bu holat shoirning individual lisoniy shaxsini belgilovchi muhim ko‘rsatkichlardan biridir.

Ijodkornning “Huzurimga keldi ellik” she’ri fonopoetik jihatdan ham alohida e’tiborga loyiqdir. She’rda tovushlar uyg‘unligi, takrorlar, qofiya va ritmik qurilish mazmunning ta’sirchanligini oshirishga xizmat qilgan. She’riy nutqda misralar, undagi so‘zlar hamda bo‘g‘inlar boshida yoki oxirida bir xil undosh tovushlaming takror qo‘lanishiga alliteratsiya deyiladi [2]. Shoir ellik yoshni qarshilar ekan, umr sarhisobi, hayotiy tajriba va kelajak orzularini samimiy ohangda ifodalaydi. Bu jarayonda fonetik vositalar poetik mazmunni kuchaytiruvchi omil sifatida namoyon bo‘ladi. She’rning dastlabki bandidayoq “yillar – qilar – ellik-ellik” birliklari o‘rtasida fonetik uyg‘unlik yuzaga keladi:

Quvalashib o‘tdi yillar,
Bir yumalab keldi ellik.
Ulfatlarim hazil qilar:
– Olmaymizmi «ellik-ellik?»

Bu misralarda **“l”**, **“y”** va **“i”** tovushlarining takror qo‘llanishi she’rga musiqiylik baxsh etadi. Ayniqsa, “ellik” so‘zining ketma-ket takrorlanishi nafaqat semantik markazni belgilaydi, balki fonopoetik dominanta vazifasini ham bajaradi. Takror natijasida lirik qahramonning e’tibori aynan ellik yosh bosqichiga qaratiladi.
Keyingi bandda:

Kimlar bunga yetolmadi,
Kimga nasib qildi ellik.
Kurashlardan hech tolmadim,
Huzurimga keldi ellik.

misralarida **“kimlar – kimga”** shaklidagi anaforik takror she’rning ritmik yaxlitligini ta’minlagan. Shuningdek, **“yetolmadi”, “tolmadim”** fe’llarining fonetik yaqinligi ham ohangdorlikni kuchaytiradi. Band oxirida takrorlangan **“ellik”** leksemasi she’rning asosiy tovush va ma’no markazi sifatida namoyon bo‘ladi.
Fonopoetik jihatdan eng e’tiborli o‘rinlardan biri quyidagi banddir:

Yuzga yetay to‘xtamayin.

Bu yerda sonlarning ketma-ket sanalishi natijasida o‘ziga xos ritmik gradatsiya hosil bo‘lgan. **“Oltmish – yetmish”** birliklaridagi *-mish* morfemasi va **“sakson – to‘qson”** so‘zlaridagi *-son* komponenti fonetik parallelizmni yuzaga keltirib, she’rning ohangdorligini oshiradi. Shu bilan birga, ushbu sanash usuli lirik qahramonning yashashga bo‘lgan ishtiyoqini kuchli emotsional fonda ifodalaydi.

Shoir quyidagi misralarda alliteratsiyadan ham unumli foydalangan:

Ellikkacha to‘plaganim,
Elga sochay sog‘u omon.

Bu o‘rinda **“el”, “ellik”, “elga”** so‘zlari tarkibida takrorlangan **“e-l”** tovush kompleksi semantik va fonetik bog‘liqlikni hosil qilgan. Natijada ellik yoshgacha orttirilgan tajriba va bilimlarni xalq manfaatiga bag‘ishlash g‘oyasi tovush uyg‘unligi orqali yanada ta’sirchan ifodalangan.

She’rning so‘nggi qismida:

Shogirdlarim bo‘lsin bisyor,
Yangrab tursin hitoblarim!

misralaridagi **“b”** undoshining takrori tantanavor va ko‘tarinki ohang hosil qiladi. Ayniqsa, **“yangrab tursin hitoblarim”** birikmasida jarangli undoshlarning faol ishtiroki lirik qahramonning ezgu niyatlari va kelajakka ishonchini fonetik jihatdan kuchaytirib beradi.

Umuman, “Huzurimga keldi ellik” she’rining fonopoetik qurilishida takror, alliteratsiya, assonans va ritmik parallelizm muhim o‘rin tutadi. Xususan, **“ellik”** leksemasining muntazam takrorlanishi she’rning fonetik dominantasini tashkil etib, mazmuniy markazni belgilaydi. Tovushlar uyg‘unligi va ritmik tizim esa lirik qahramonning hayotiy falsafasi, umr sarhisobi va kelajakka bo‘lgan umidlarini yanada ta’sirchan ifodalashga xizmat qilgan. Shu jihatdan she’r Siddiq Mo‘min poetikasida fonopoetik vositalarning badiiy-estetik imkoniyatlarini namoyon etuvchi yorqin namunalaridan biri hisoblanadi.

Siddiq Mo‘minning:

Qishloqlik qishloqcha o‘ylaydi,
Shaharlik shaharcha so‘ylaydi.
Sarhadsiz, betakror dunyoga
Har kim o‘z bo‘yicha bo‘ylaydi.

to‘rtligida bir qator fonopoetik vositalar qo‘llangan bo‘lib, ular she’rning badiiy-estetik va ritmik ta’sirchanligini oshirishga xizmat qiladi. Avvalo, she’rda **paronomaziya** hodisasi yaqqol kuzatiladi. Paronomaziya (gr. “para” – yaqin va “onomazo” – chaqiraman) – tovush yoki tuzilish jihatidan o‘xshash so‘zlarni qasddan yonma-yon foydalanish orqali ma’lum stilistik ta’sir hosil qilish usulidir. Paronomaziyada bir kontekstda morfologik tuzilishi bo‘yicha bir-biriga qisman bog‘liq so‘zlar, ya’ni paronimlar, shuningdek, tasodifiy o‘xshash yoki talaffuzdosh so‘zlar qo‘llanilishi mumkin. Bu hodisa ko‘pincha badiiy adabiyot, publitsistik nutq hamda notiqlik san’atida keng qo‘llanadi [5]. Nemis tilshunosi Harald Burger paronomaziyani fonetik jihatdan o‘xshash birliklar asosida yaratilgan stilistik usul sifatida izohlaydi va uning badiiy matn hamda publitsistik nutqda keng qo‘llanishini ta’kidlaydi[3].Paronomaziya

nutqga obrazlilik, ifodalilik va ta’sirchanlik bag‘ishlaydi. Paronomaziya yordamida yaratilgan iboralar o‘quvchi yoki tinglovchining xotirasida uzoq vaqt saqlanib qoladi.

Xususan, shoir ijodidagi **“o‘ylaydi – so‘ylaydi – bo‘ylaydi”** birliklari fonetik jihatdan o‘zaro yaqin bo‘lib, tovush va shakl o‘xshashligi asosida poetik uyg‘unlik hosil qiladi. Ushbu paronomastik qator she’rning asosiy ritmik tayanchini tashkil etib, mazmuniy umumlashmani kuchaytiradi. Shuningdek, birinchi va ikkinchi misralarda **“qishloqlik – qishloqcha”** hamda **“shaharlik – shaharcha”** birliklaridagi o‘zak takrorlari natijasida fonetik-morfologik parallelizm yuzaga kelgan. Bu takrorlar matnning ichki ritmini mustahkamlab, qarama-qarshi ijtimoiy muhit vakillarining nutq va tafakkur xususiyatlarini fonopoetik jihatdan ifodalashga xizmat qiladi. She’rda alliteratsiya ham kuzatiladi. Xususan, **“q”**, **“sh”** va **“b”** undoshlarining takrori misralar orasida ohangdorlikni kuchaytiradi va matnga musiqiylik bag‘ishlaydi. Bundan tashqari, **“o‘”** unlisi takrorlanib kelishi natijasida assonans hodisasi yuzaga kelgan bo‘lib, bu ham she’rning fonetik uyg‘unligini ta’minlaydi. Umuman olganda, mazkur to‘rtlikda paronomaziya, alliteratsiya, assonans hamda fonetik-morfologik parallelizm kabi fonopoetik vositalar uyg‘un holda qo‘llangan bo‘lib, ular she’rning ritmik tuzilishini mustahkamlash bilan birga, asosiy g‘oya - har bir insonning dunyoni o‘z qarashi va tajribasi asosida idrok etishini ta’sirchan ifodalashga xizmat qilgan.

Xulosa qilib aytganda, Siddiq Mo‘min ijodida tovush estetikasi shunchaki shakliy bezak emas, balki poetik tafakkurning uzviy qismi o‘laroq namoyon bo‘ladi. Shoir she’riyatida ohang va ma’noning fonosemantik sintezi lirik qahramonning murakkab ruhiy holatlari va falsafiy mushohadalarini aniq ifodalashga xizmat qilgan. Shu bois, uning asarlari zamonaviy o‘zbek she’riyati poetikasi va ovoz estetikasini tadqiq qilish uchun boy ilmiy poydevor yaratadi. Aynan mana shu jihat ijodkorning betakror individual-lisoniy olamini va o‘ziga xos poetik uslubini belgilab beradi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Турсунова О. Ўзбек тили фонетик бирликларининг поэтик имкониятлари: Филол. фанл. б-ча фалсафа д-ри. … дисс. – Фарғона, 2019. – Б. 130.
2. Йўлдошев М. Бадиий матн ва унинг лингвопоэтик таҳлили асослари. –Тошкент: Фан, 2007
3. Burger H. Phraseologie: Eine Einführung am Beispiel des Deutschen. – Berlin: Erich Schmidt Verlag, 2007. – S. 240.
4. S. Mo‘min. Biomaydon. – “Farg‘ona” nashriyoti, 2022
5. https://doi.org/10.5281/zenodo.19967767